O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI

“TASDIQLAYMAN”

_____

I.M.Tuxtasinov

2023-yil “30” 08

Ro‘yxatga olindi:№ MD-70230101. 1.07

2023 yil “30” 08

MAXSUS FANLARNI O‘QITISH METODIKASI FANINING O‘QUV DASTURI

Bilim sohasi: 200 000 - San’at va gumanitar fanlar

Ta’lim sohasi: 230 000 - Tillar

Mutaxassislik: 70230101 - Lingvistika (italyan tili)

Samarqand – 2023

Fan/modul kodi	O‘quv yili	Semestr	ECTS – Kreditlar
MFO‘M1304	2024-2025	3	4
Fan/modul turi	**Ta’lim tili**	**Haftadagi dars soatlari**	
Majburiy	O‘zbek	4	

	Fanning nomi	Auditoriya mashg‘ulotlari (soat)	Mustaqil ta’lim (soat)	Jami yuklama (soat)
1.	Maxsus fanlarni o‘qitish metodikasi	60	60	120

2. **I. Fanning mazmuni**

Fanni o‘qitishdan maqsad – magistrantlarni oliy ta’lim tizimida maxsus fanlarni o‘qitish metodikasi, metodologiyasi, nazariy va amaliy asoslari, ularning kelgusidagi pedagogik va ilmiy-tadqiqot faoliyati uchun zarur bo‘ladigan zamonaviy pedagogik va psixologik bilimlar bilan tanishtirish, jumladan, davlat ta’lim standartlari va ular asosida ishlab chiqiladigan namunaviy fan dasturlari, o‘quv rejalarni ishlab chiqish tartibi; maxsus fanlarni o‘qitishda optimal strategiyani tanlay olish, zamonaviy ta’lim texnologiyalarini ishlab chiqish va amalga tatbiq etish; maxsus fanlarni o‘qitish metodikasini takomillashtirishda ilmiy-tadqiqot va ta’lim sohasidagi innovatsiyalardan foydalanish ko‘nikmalarini rivojlantirishdir.

Fanning vazifasi – maxsus fanlarni o‘qitish bo‘yicha magistrantlarning pedagogik mahoratini oshirish, amaliy va nazariy mashg‘ulotlarni tashkil etishning zamonaviy metodlari bilan tanishtirish, maxsus fanlarga doir o‘quv-uslubiy materiallarni tahlil qilish, mashg‘ulotlarning turli usullarini ishlab chiqish va o‘tkazish, shuningdek, talabalar bilim darajasini nazorat qilish va baholashning zamonaviy yo‘llarini o‘rgatish.

II. Asosiy qism (nazariy mashg‘ulotlar)

II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:

1-mavzu. Maxsus fanlarni o‘qitish metodikasiga kirish

Zamonaviy ta’lim tushunchasi. Ta’lim tizimi taraqqiyotining jahon tendentsiyalari. Ta’lim sifatini ta’minlash maqsadida tizimni boshqarish tamoyillari.

2-mavzu. O‘zbekistonda ta’lim tizimi

O‘zbekistonda ta’lim tizimi. “Maxsus fanlarni o‘qitish metodikasi”ning boshqa fanlar bilan aloqasi. Maxsus fanlarni o‘qitishning asosiy toifalari.

3-mavzu. Qiyosiy metodika

“Qiyosiy metodika” tushunchasi. Qiyosiy metodikaning maqsadi, vazifalari va o‘rganish ob’ekti. Turli ta’lim muassasalarida o‘qitish metodikasi.

4-mavzu. O‘qitishning turli bosqichlarida ta’limni individuallashtirish va tabaqalashtirish muammolari

Intellektual salohiyat nazariyasi. Nazoratga qo‘yiladigan zamonaviy talablar. Turli ta’lim muassasalarida o‘quvchi va talabalar egallagan

bilimlarni baholashning o‘ziga xos xususiyatlari.

5-mavzu. Pedagogning umumkasbiy kompetentsiyasi

Kompetentli yondashuv tehnologiyasining umumiy tavsifi. Pedagogning kasbiy faoliyati. Zamonaviy pedagog va unga qo‘yiladigan talablar. Zamonaviy ta’lim tizimida shaxsning o‘z-o‘zini tarbiyalashi. Zamonaviy pedagogning kasbiy mahorati.

6-mavzu. Kasbiy-pedagogik umumkasbiy kompetentsiyasi

Kasbiy-pedagogik o‘z-o‘zini boshqarish pedagog kompetentligining asosi sifatida. Kompetentsiya va kompetentlik tushunchalari o‘rtasidagi o‘zaro munisabat. Muammoli vaziyatlarga yechim topishda kasbiy kompetentlik.

7-mavzu. Kasbiy-pedagogik madaniyat

Kasbiy-pedagogik madaniyat – mohir pedagogning asosiy xususiyati sifatida. Pedagogik faoliyat sub’ektlari. Pedagogik faoliyat yurituvchilar – pedagogic faoliyat sub’ektlari sifatida. Kasbiy-pedagogik madaniyatning psixologik komponentlari. Pedagogik muloqot madaniyati kasbiy-pedagogik madaniyatning yetakchi komponenti sifatida. Pedagogik muloqotning yetakchi strategiyalari: sub’ektlararo muloqot, dialog, hamkorlik va b. Pedagog qiyofasining komponentlari.

8-mavzu. Oliy ta’lim tizimida o‘qitish metodikasi

Oliy ta’limda pedagogic faoliyatining asosiy turlari: ma’ruza – ta’lim tizimining yetakchi komponenti sifatida, ma’ruzaning asosiy vazifalari, ma’ruzani tayyorlashning asosiy metodik jihatlari va uni o‘tkazish, ma’ruza turlari va ularning tavsifi. Seminar va uning o‘ziga xos xususiyatlari. Amaliy mashg‘ulot va amaliyot to‘g‘risida tushuncha, ularning o‘ziga xos xususiyatlari. Amaliy darslarning turlari.

9-mavzu. Pedagogik faoliyatda innovatsiyalar

Innovatsiya tushunchasi, pedagogic innovatsiyalarni qo‘llash. Pedagogik innovatsiyalarning turlari: yangi g‘oyalar, texnologiyalar, pedagogic faoliyatda yangi vositalar, metod va shakllarni qo‘llash. O‘quv jarayoniga yangi tizimni joriy etish. Innovatsion texnologiyalarni o‘rganish va pedagogic faoliyatda qo‘llash. Pedagigning innovatsion faoliyatini rag‘batlantirish.

10-mavzu. Kursning o‘quv ta’minotiga qo‘yiladigan zamonaviy talablar.

O‘rgatuvchi mualliflik dasturlarni ishlab chiqish va o‘quv adabiyotlarini yaratish masalalari. Modul dasturlari va kurslarni ishlab chiqishning metodik asoslari. Ta’limni avtonomlashtirish.

11-mavzu. Ilmiy-pedagogik ta’minotiga qo‘yiladigan zamonaviy talablar

Modullarning tuzilishi va mazmuni. Modul texnologiyasi asosida o‘qitishning afzalliklari. Modul asosida o‘qitishni tashkil etish shartlari.

12-mavzu. Muloqotni o‘rgatishning lingvo-metodik tamoyillari

Muloqotni o‘rgatishda juft bo‘lib ishlash texnologiyalari. Muloqotni

o‘rgatishda guruh bo‘ylab ishlash texnologiyalariMuloqotni o‘rgatishda loyixa ustida ishlash texnologiyasi. Muloqotni o‘rgatishda leksik ko‘nikma va malakalarni shakllantirish usullari.

13-mavzu. Muloqotni o‘rgatishda grammatik ko‘nikma va malakalarni shakllantirish usullari

Muloqotni o‘rgatishda grammatik ko‘nikma va malakalarni shakllantirish usullari. Modulga asoslangan dastur, uning mazmuni, tuzilishi va tarkibi.

14-mavzu. O‘rgatuvchi dasturlarni loyihalash metodikasi

Kursning o‘quv va ilmiy-pedagogik ta’minotiga qo‘yiladigan zamonaviy talablar. O‘rgatuvchi mualliflik dasturlarni ishlab chiqish va o‘quv adabiyotlarini yaratish masalalari.

15-mavzu. Modul dasturlarni loyihalash metodikasi

Modul dasturlari va kurslarni ishlab chiqishning metodik asoslari. Ta’limni avtonomlashtirish. Modullarning tuzilishi va mazmuni.

III. Amaliy mashg‘ulotlari bo‘yicha ko‘rsatma va tavsiyalar

Amaliy mashg‘ulotlari uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. Maxsus fanlarni o’qitish metodikasini o’qitish faniga kirish
2. Oliy ta’lim tizimida pedagog faoliyatining turlari
3. Pedagogning kasbiy madaniyati
4. Oliy muasasada darslarni tashkil va qiyosiy metodikasining xususiyatlari
5. Maxsus fanlarni o’qitish metodikasining nazariy va amaliy xususiyatlari
6. Pedagogik faoliyatda va innovatsiyalar va ularni tashkiliy usullari
7. Ta’lim dasturlarini ishlab chiqish va vazifalarni mazmuni
8. XXI asrda tillarni o’qitish
9. Ta’limni individuallashtirish va tabaqalash.
10. Og’zaki nutqni tushunish ko’nikmasining shakllari
11. Tinglab tushunish ko’nikmasini shakllari
12. Matnlarni o’qib tushunish ko’nikmalar shakllari
13. Yozish ko’nikma shakllantirish
14. Ta’lim tizimi va uning taraqiyotida jahon tendensiyalari.
15. Qiyosiy metodika haqida.

VI. Mustaqil ta’lim va mustaqil ishlar

Mustaqil ta’lim uchun tavsiya etiladigan topshiriqlar:

1. Maxsus fanlarni o`qitish metodikasi fanining ahamiyati va roli
2. Til o'rganish. Til, muloqot va foydalanish vositasi.
3. Til va maktab. Til va markaz loyihasi.
4. Ta'lim islohoti. O‘quv tuzilmalari
5. Chet tili darslarida grammatikani o‘rgatish.
6. Til sohasini dasturlash. Materiallar va baholash
7. Grammatik qoidalar va ularni qo‘llash normasi.

8. Italyan tili grammatikasini o‘rganishdagi ayrim qiyinchiliklar.
9. OTM tizimidagi hozirgi davr o‘qitish metodikasi.
10. Kasbiy pedagogik madaniyat.
11. Talaba ilmiy ishlarining turlari.
12. Hozirgi davr pedagog faoliyatida innovatsiyalar.
13. “Modul” texnologiyasi va uning afzalliklari.
14. Ta’lim tizimi va uning taraqiyotida jahon tendensiyalari.
15. Qiyosiy metodika haqida.
16. Ta’limni individuallashtirish va tabaqalash.
17. Kasbiy pedagogik mahorat.
18. Pedagogning muloqot madaniyati.
19. Ilmiy ishlarga qo‘yiladigan talablar.
20. Innovatsion texnologiyalarni o‘rganish va ularni pedagogik faoliyatda qo‘llash.
21. Til tizimi. Kirish. Matn. Morfosintaksis.
22. Yozma mashqlarni tuzish tamoyillari va bosqichlari
23. Maxsus fanlardan tajriba - amaliy mashg’ulotlarini o’tkazish metodikasi
24. Dars tahlilini o’tkazish metodikasi
25. Dars tahlilining tarkibiy qismlari
26. Dars tahlili va uni o’tkazish metodikasi
27. Ta’lim jarayonida baholashning ahamiyati nima?
28. Ta’lim jarayonida ko’rgazmali vositalaridan foydalanish metodikasi
29. Maxsus fanlarni o’qitishning kontseptual asoslari
30. Uzluksiz ta’lim tizimida dars o‘tishning asosiy xususiyatlari

3. **V. Fan o‘qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetentsiyalar)**

Fanni o‘zlashtirish natijasida magistrant:

- maxsus fanlarni o‘qitish metodikasi fanining dastlabki bosqichlarida metodlarining yaratilishi, bu metodlarni yaratilishiga katta hissa qo‘shgan olimlarning lingvistik ta’limotlari, erishgan yutuqlari va o‘qitish metodlarining turlari haqida ***tasavvur va bilimga ega bo‘lishi***;
- tarixiy-traditsion va zamonaviy metodlarga tayangan holda, fanda shakllangan ilmiy metodlarni til faktlarini tahlil qilishda to‘g‘ri qo‘llash, munozara yuritish, shu mavzularda suhbat qurishda faol ishtirok etish ***ko‘nikmalariga ega bo‘lishi***;
- maxsus fanlarni o‘qitish metodikasi rivojlanish dinamikasini chuqur tushunish va tahlil qilish, ularni qiyoslab o‘rganish va zamonaviy tilshunoslikda qo‘llanilayotgan metodlar haqida fikr yurita olish ***malakalariga ega bo‘lishi kerak.***

4. **VI. Ta’lim texnologiyalari va metodlari:**

- Ma’ruzalar;
- Interfaol keys-stadilar;
- Seminar va mustaqil mashg’ulotlar (mantiqiy fikrlash, tezkor savol-

	javoblar); • Guruhlarda ishlash; • Taqdimot tayyorlash; • Beriladigan muammolarni (mavzu) guruh bo'lib muhokama qilish;
5.	**VII. Kreditlarni olish uchun talablar:** Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha yozma ishni topshirish.
6.	**Asosiy adabiyotlar** 1. Andorno C., Che cosè la pragmatica linguistica, Carocci, Roma, 2009 2. Dardano M., Trifone P., La lingua italiana, Zanichelli, Bologna, 1985 3. Lombardi Vallauri E., La linguistica. In pratica, Zanichelli, Bologna, 2007 4. Umarxo'jaev M.E. Umumiy tilshunoslik. – Andijon, 2007. 5. Sodiqov A., Xolmurodov A. Umumiy tilshunoslik. – Toshkent, 2014 **Qo'shimcha adabiyotlar:** 1. O'zbekiston Respublikasi Ta'lim to'g'risida"gi Qonun 1997 y 29 avgust Oliy Ta'lim me'yoriy xujjatlar to'plami "SHarq" nashriyoti matbaa aksiyadorlik kompaniyasi Bosh taxririyati. T.; 2001 3 b. 2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning "Chet tillar o'qitish tizimini yanada takomillashtirish chora tadbirlari xakida"gi 2012 yil 10 dekabrdagi PK 1875 sonli qarori. 3. Азизходжаев И.Н. "Педагогические технологии и педагогическое мастрество", Ташкент, 2003. 4. Бим И.Л. "Методика обучения иностранному языку в школе", 2003. 5. Болдырёв И.Н. "Лингвистические основы коммуникативных методов обучения иностранному языку", Журнал "Иностранные языки в школе", (IYASH), 1998. 6. Jalolov J.J "Chet tili o'qitish metodikasi", chet tillar oliy o'quv yurtlari talabalari uchun darslik. 7. Yo'ldoshev J., Usmonov S. Pedagogik texnologiyalar asoslari. Toshkent 2004

	Axborot manbaalari: 1. www.accademiadellacrusca.it (sito dell'Accademia della Crusca di Firenze. Osservatorio sulla lingua italiana) 2. https://letteritaliana.weebly.com/il-rinascimento.html 3. www.istat.it (Istituto nazionale di statistica) 4. https://www.impariamo.com.ar/blog/ 5. www.esteri.it (Ministero Affari Esteri italiano) 6. www.stranita.it (sito per insegnanti di L2/LS) 7. www.culture.coe.fr/lang
7.	Samarqand davlat chet tillar instituti tomonidan ishlab chiqilgan va institut Kengashining 2023-yil "30" 08 dagi "1"-sonli bayonnomasi bilan tasdiqlangan.
8.	**Fan/modul uchun mas'ullar:** M. R. Xakimov - SamDChTI, "Ispan va italyan tillari kafedrasi" katta o'qituvchisi
9.	**Taqrizchilar:** A.F. Shamaxmudova - SamDChTI, "Ispan va italyan tillari" kafedrasi mudiri, professor v.b. D. F. Toirova - TATU, Samarqand filiali "Tillar" kafedrasi DSc